



# MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASHNING YANGI ISTIQBOLLARI BELGILANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-iyul kuni Qirg‘iziston Respublikasining Cho‘lponota shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.



Tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston

Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdilar. Davlat rahbarlari Markaziy Osiyo va Ozarbayjon mamlakatlari va xalqlarining barqaror rivojlanishi, iqtisodiy taraqqiyoti, xavfsizligini ta’minlash hamda farovonligini

yuksaltirishga doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. O‘zbekiston yetakchisi so‘zining avvalida norasmiy sammitni o‘tkazish tashabbusi va Issiqko‘l sohilidagi iliq qabul uchun Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti

Sadir Japarovga samimiy minnatdorlik bildirdi. Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga ham Maslahat uchrashuvlari formatida samarali raislik qilayotgani uchun tashakkur izhor etildi.

Mintaqa mamlakatlari mustaqilligining 35 yillik bayramlarini nishonlash arafasida har birining davlatchilikni barpo etish, iqtisodiy o‘shish va milliy tiklanish borasida erishgan muvaffaqiyatlariga yuksak baho berildi.

— Ilgari tarqoq bo‘lgan Markaziy Osiyo bugungi kunda birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz natijasida taraqqiyotning umumiy maqsadlari yo‘lida birlashmoqda, — dedi Prezidentimiz.

Davomi 2-beta

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING NORASMIY MASLAHAT UCHRASHUIDAGI NUTQI

Hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich!

Hurmatli davlat rahbarlari!

Qirg‘iziston Prezidenti hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovga norasmiy uchrashuvimizni o‘tkazish tashabbusi va “qirg‘iz dengizi” — go‘zal Issiqko‘l sohilidagi iliq qabul uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ikki kun davomida Qirg‘izistonda bo‘lar ekanman, Sizning rahbarligingizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijalari menda katta taassurot qoldirdi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha yuqori sur‘atlarni namoyish etmoqda, uning xalqaro nufuzi muttasil oshib bormoqda.

Sizni va qardosh qirg‘iz xalqini Qirg‘izistonning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a‘zosi etib saylangani bilan tabriklaymiz.

Turkmaniston Prezidenti Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga ham Maslahat uchrashuvlari formatida samarali raislik qilayotgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Bugun biz davlatlarimiz mustaqilligining 35 yillik bayramlarini nishonlash arafasida yig‘ilib turibmiz. Shu yillar mobaynida har bir mamlakat davlatchilikning shakllanishi, iqtisodiy o‘shish va milliy tiklanishning o‘ziga xos va betakror yo‘lini bosib o‘tdi.

Ilgari tarqoq bo‘lgan Markaziy Osiyo bugungi kunda birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz natijasida taraqqiyotning umumiy maqsadlari yo‘lida birlashmoqda.

Shu bilan birga, murakkab va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan bugungi xalqaro voqealik bizdan yanada qat’iyat bilan harakat qilishni va yanada yaqin muvofiqlashtiruvni talab etmoqda.

Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlari formatiga qo‘shilishi o‘zaro hamkorligimizni sifat jihatidan yangi — makromintaqaviy darajaga olib chiqmoqda.

Biz uchun Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va yaqin qo‘shnimiz — Afg‘onistonni birlashtiruvchi yagona taraqqiyot makonini shakllantirish borasida tarixiy imkoniyat ochilmoqda. Ushbu vaziyatdan to‘liq foydalanib, birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz bilan Yevroosiyo qoq yuragida barqaror rivojlanish, o‘zaro bog‘liqlik va yaxshi qo‘shnichilik uchun mustahkam poydevor yaratishimiz zarur.

Hurmatli hamkasblar!

Mintaqaviy hamkorlikning barqaror arxitekturasini shakllantirishga o‘tish vaqti keldi. Uning tuzilishi hamkorlikning samarali institutlari, tarmoq idoralarining yaqin munosabatlari, hududlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari hamda rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridagi uzoq muddatli qo‘shma dasturlarga tayanishi zarur.

Mintaqamizning xalqaro subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlagan holda davlatlararo tashkilotlar va “Markaziy Osiyo plus” formatlari doirasida o‘zaro muvofiqlashtiruvni kuchaytirish lozim.

Savdo-iqtisodiy va transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, uzluksiz sanoat-texnologik zanjirlarni kengaytirish, umumiy raqamli xizmatlarni rivojlantirish hamda investitsiya platformalarini ishga tushirish bo‘yicha kelgusi qadamlarni puxta ishlab chiqish lozim.

Markaziy Osiyo ta’lim, ilm-fan va katta ma’lumotlar sohasida innovatsiyalar bo‘yicha raqobatbardosh xabga aylanishi kerak. Bunga kadrlar salohiyati, sun’iy intellekt texnologiyalari, data-markazlar va energetika quvvatlarini birlashtirgan yaxlit infratuzilmani yaratish orqali erishish mumkin.

Atrof-muhitni muhofaza qilish har doim mintaqaviy kun tartibining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Yagona tabiiy makonimizda yuzaga kelayotgan tahdidlar davlat chegaralarini tan

olmaydi, shunday ekan, ularga javob choralari ham umumiy bo‘lishi kerak.

Joriy yilgi yozning anomol darajada issiq kelishi iqlim o‘zgarishi allaqachon iqtisodiyot, suv va energetika xavfsizligi, odamlarning salomatligi va hayot sifatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladigan omilga aylanib borayotganini yana bir bor ko‘rsatdi. Ana shunday yangi xavf-xatarlarga birgalikda moslashish bo‘yicha uzoq muddatli yechimlarni topish muhimdir.

Hamkorligimizning o‘zgarmas ustuvor yo‘nalishlari orasida gumanitar aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlarimiz asrlar davomida yonma-yon yashagan, savdo-sotiqni rivojlantirgan, bilim va madaniy an‘analari bilan o‘zaro almashgan.

Zamonaviy hamkorlik chuqurlashgani sari hamjihatlik tuyg‘usi ham mustahkamlanmoqda. Ulumimintaqaviy o‘ziga xoslik, xalqlarimizning milliy o‘zligi saqlangan holda bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

Ishonchim komil, ushbu sohadagi ishlarning mohiyati sifat jihatidan o‘zgarishi xalqlarimiz o‘rtasidagi birlik, hamjihatlik va o‘zaro tushunish tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Aziz do‘stlar!

Hamkorligimizni yanada mustahkamlash bo‘yicha bugun aytib o‘tilgan tashabbus va takliflarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman. Fursatdan foydalanib, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayev va butun qozoq xalqiga yangi Qurultoyga saylovlar muvaffaqiyatli o‘tishini tilab qolaman.

So‘zimning yakunida bizning umumiy kuchimiz — birlik, o‘zaro ishonch va birgalikdagi yaratuvchanlikka qat’iy sadoqatimizda ekanini yana bir bor ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, tinchlik va yangi yutuqlar, mamlakatlarimiz xalqlariga esa farovonlik va ravnaq tilayman.

## O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni — o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lgan ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislar, mashinistlar, vagon kuzatuvchilari hamda soha faxriylarini Temir yo‘l transporti xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Sizlar fidokorona mehnatingiz bilan Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudratini oshirish, transport-kommunikatsiya tizimini izchil rivojlantirish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shib kelayotganingizni ushbu qutlug‘ ayyomda yana bir bor e’tirof etamiz.

So‘nggi yillarda sohada olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ulkan natijalar bermoqda. Bu o‘zgarishlarni 2 ming 400 kilometrdan ko‘proq yangi temir yo‘l tarmoqlari qurilib, foydalanishga topshirilgani, 3 ming kilometrdan ortiq yo‘llar elektrlashtirilib, 1 ming 100 kilometrdan ziyodi reabilitatsiya qilingani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu haqda so‘z yuritganda, yirik investitsiya loyihalari asosida Samarqand — Urgut, Baytqo‘rg‘on — Parkent, Urganch xalqaro aeroporti — Xiva temir yo‘l tarmoqlari barpo etilgani, Navoiy — Buxoro uchastkasining ikkinchi elektrlashtirilgan

liniyasi ishga tushirilgani, bir qator istiqbolli yo‘nalishlarda esa qurilish ishlari jadal davom ettirilayotganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, Maroqand — Navoiy, Buxoro — Urganch — Xiva, Miskin — Nukus, Qumqo‘rg‘on — Quduqli kabi muhim yo‘nalishlarni elektrlashtirish, temir yo‘l stansiyalarining o‘tkazuvchanlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali milliy logistika tizimi samaradorligi oshirilmoqda.

Ayniqsa, mamlakatimizni jahon transport yo‘laklari bilan yanada ishonchli bog‘laydigan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li barpo qilinayotgani, qo‘shni Afg‘oniston bilan temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik izchil davom ettirilayotgani O‘zbekistonning mintaqaviy transport va tranzit markazi sifatidagi o‘mi tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlarini yanada takomillashtirish maqsadida Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasi tomonidan maxsus ishlab chiqarilgan, yuqori tezlikdagi yangi “Jaloliddin Manguberdi” elektropoyezdining Toshkent — Xiva va Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha foydalanishga topshirilgani diqqatga sazovordir.

Temir yo‘l vokzallarini zamonaviy qiyofaga keltirish, ularning muhandislik va servis

infratuzilmasini tubdan yangilash, tadbirkorlik uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Sohada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini keng joriy etishga ham alohida e’tibor berilmoqda.

Biz yaqin yillarda yuzlab zamonaviy yo‘lovchi vagonlarini, yuqori texnologik poyezdlarni xarid qilish, temir yo‘l infratuzilmasini yanada kengaytirish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish bo‘yicha yangi va ulkan rejalarni amalga oshiramiz.

Biz sizlar kabi minglab zahmatkash temiryo‘lchilar bilan, sizlarning kasbiy mahoratingiz, boy bilim va tajribangiz, vatanparvarlik fazilatlaringiz bilan bunday yuksak maralarga albatta erishamiz.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlab, mamlakatimiz temir yo‘l tizimini yanada zamonaviy, innovatsion va xalqaro miqyosda raqobatbardosh tarmoqqa aylantirishdek sharaflı yo‘lda barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, olijanob faoliyatingizda yutuq va omadlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

### Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## IJRO INTIZOMI ORQALI TA’MINLANAYOTGAN USTUVOR NATIJALAR

Suv — hayot manbai, taraqqiyot poydevori va kelajak barqarorligini belgilaydigan strategik resurs. Bugungi global iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslar cheklangan va ekologik bosim kuchayib borayotgan sharoitda suvga munosabat yangicha mazmun kasb etmoqda. U endi iqtisodiy yoki ekologik masala bo‘lib qolmay, davlat barqarorligi va milliy xavfsizlikning muhim strategik yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Aynan shu nuqtada tabiiy resurslarga munosabat va davlat boshqaruvidagi qarorlar ijrosi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik yuzaga chiqadi. Chunki strategik resurslarni boshqarishda qabul qilingan har bir qarorning amaldagi natijasi jamiyat hayotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, suv resurslarini samarali boshqarish, har bir tomchining qiymatini anglash va infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu vazifalarni hal etishda ijro intizomi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Davomi 4-beta



## XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN

## HIMOYA QILISHNING ULKAN EVOLYUTSION YO‘LI



**Abdulaziz RASULEV,**  
yuridik fanlar doktori,  
professor

**Jamiyatning haqiqiy taraqqiyoti baland binolar, yirik loyihalar yoki statistik o‘rishlar bilangina o‘lchanmaydi. U, avvalo, inson o‘z uyida, o‘z mahallasida, o‘z hayotida qanchalik xavfsiz va qadrlanganini his etishi bilan baholanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning sha‘ni, sog‘lig‘i va erkinligi ishonchli himoya qilingan mamlakatdagina adolat, farovonlik va ma‘naviy barqarorlik haqida to‘laqonli so‘z yuritish mumkin.**

Yurtimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi davlat siyosatining insonparvar mohiyatini namoyon etadigan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. So‘nggi yillarda bu masalaga oila doirasida qoladigan xususiy nizo emas, inson huquqlari, jamoat xavfsizligi va davlat mas‘uliyati bilan bog‘liq umummilliy vazifa sifatida qarala boshlandi. Eng katta o‘zgarish davlatning munosabatida yuz berdi. Endilikda jabrlanuvchidan sabr qilish emas, uni himoyalash, holatni yashirishdan ko‘ra, xavfni barvaqt aniqlash, yarashtirishni har qanday vaziyatda maqsadga aylantirish emas, avvalo, inson hayoti va qadr-qimmatini asrash talab etilmoqda.

Bu boradagi islohotlar alohida huquqiy choralar bilan cheklanib qolmadi. Keyingi yillarda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalash, gender tenglikni ta‘minlash hamda ayollar huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan, ikkita maxsus qonun qabul qilinib, Jinoyat, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Mehnat va Oila kodekslariga tizimli o‘zgartishlar kiritildi. Sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida Prezidentimizning 15 dan ortiq farmon va qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 20 ga yaqin qarori qabul qilinib, kompleks huquqiy mexanizm shakllantirildi.

Mustaqillik yillarida bu tizim konstitutsiyaviy tenglik va ijtimoiy muhofaza tamoyillaridan boshlanib, maxsus qonunchilik, himoya orderi, ma‘muriy va jinoiy javobgarlik, reabilitatsiya markazlari, raqamli murojaat kanallari hamda idoralararo ijtimoiy xizmatlar tizimigacha bo‘lgan murakkab, ammo izchil yo‘lni bosib o‘tdi. Ushbu taraqqiyotni shartli ravishda yetti bosqichga bo‘lish mumkin.

### Huquqiy poydevor yaratilgan yillar

1991-2003-yillarda davlat siyosati xotin-qizlarning konstitutsiyaviy tengligini ta‘minlash, jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratildi.

1992-yilgi Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ekani mustahkamlanib, keyinchalik gender tenglik va zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid maxsus qonunlarni qabul qilish uchun fundamental huquqiy asos yaratildi.

1995-yilda O‘zbekiston BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi —

CEDAWga qo‘shildi. O‘sha davrda tazyiq va oilaviy zo‘ravonlik alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilanmagan bo‘lib, bunday holatlar umumiy jinoyat, ma‘muriy, oila va fuqarolik qonunchiligi normalari asosida baholangan, nizolarni mahalla va oila doirasida yarashtirish orqali hal etish ustuvor sanalgan.

### Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdagi institutsional yondashuv

2004-2016-yillar xotin-qizlar bilan ishlashning tashkiliy asoslari mustahkamlangan davr bo‘ldi. 2004-yilda maxsus farmon bilan O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari faoliyati qo‘llab-quvvatlanib, tashkiliy tuzilmasi hamda mahalliy darajadagi ishtiroki kuchaytirildi.

Bu davrda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash, ularni bandlik va kasbga o‘qitish dasturlariga jalb etish, onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlash, og‘ir turmush sharoitidagi ayollarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish ishlari kengaytirildi. Oilaviy nizolarni mahalla darajasida hal etish ham muhim vosita sifatida qo‘llanildi.

Ayni paytda tizim asosan ijtimoiy himoya va oilani saqlab qolish konsepsiyasiga tayandi. Shu sababli ayrim holatlarda jabrlanuvchining xavfsizligidan ko‘ra yarashtirish, ajrashishning oldini olish va oila obro‘-sini saqlashga ustuvor ahamiyat berildi.

### Muammoga yangi davlat siyosati nuqtayi nazaridan qarash

2017-2018-yillarda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurash masalasiga davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tibor qaratildi.



2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni manfaatlarini ta‘minlash hamda oila institutini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi. Prezidentimizning 2018-yil 2-fevraldagi farmoni bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyat tubdan takomillashtirilib, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushgan ayollarni manzilli qo‘llab-quvvatlash hamda oilaviy muammolarni barvaqt aniqlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Shu asosda xonadonbay o‘rganish, muammoli oilalar bilan manzilli ishlash, ayollar uchun maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish, oila va xotin-qizlar masalalarini ilmiy-amaliy o‘rganish hamda og‘ir ijtimoiy ahvolda tushgan ayollarni reabilitatsiya qilish mexanizmlari kengaytirildi.

Mazkur bosqich ijtimoiy himoya modelidan maxsus huquqiy himoya modeliga o‘tish uchun mustahkam zamin yaratdi. Natijada tazyiq va zo‘ravonlik oila doirasida hal qilinadigan shaxsiy masala emas, balki davlat organlari aralashuvini talab qiladigan ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida baholana boshlandi.

### Maxsus qonun va himoya orderi

2019-2020-yillar sohadagi eng muhim huquqiy buriilish bosqichi bo‘ldi. 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan tazyiq, jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik tushunchalari, jabrlanuvchilarning huquqlari, vakolati organlarning vazifalari hamda himoya orderi instituti huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

O‘sha kuni qabul qilingan yana bir hujjat — “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun esa gender tenglikni ta‘minlashni davlat siyosatining mustaqil huquqiy yo‘nalishi sifatida belgiladi.

2020-yilda himoya orderini rasmiylashtirish, berish va ijrosini ta‘minlash tartibi joriy etildi, keyinchalik orderlarni elektron shaklda rasmiylashtirish hamda QR-kod orqali tasdiqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Himoya orderi zo‘ravonlik jinoyat darajasiga yetmasdan turib, davlatning tezkor huquqiy aralashuvini ta‘minlaydigan mexanizmga aylandi. U jabrlanuvchi bilan aloqani cheklash, zo‘ravonlikni takrorlamaslik haqida rasmiy ogohlantirish berish va profilaktik nazoratni amalga oshirish imkonini yaratdi. Shu tariqa oilaviy yoki shaxsiy munosabatlar zo‘ravonlikni oqlashga asos bo‘la olmasligi, insonning hayoti, sog‘lig‘i va qadr-qimmatini himoya qilish davlatning ustuvor vazifasi ekani huquqiy amaliyotda mustahkam qaror topdi.

Mazkur huquqiy islohotlar nafaqat milliy huquq tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi, balki O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlarini amaliy ta‘minlashga ham xizmat qildi. Xususan, BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi (CEDAW) talabari milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich

implementatsiya qilindi. Keyinchalik yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishi alohida konstitutsiyaviy kafolat sifatida mustahkamlandi.

### Reabilitatsiya va manzilli yordam bir yo‘nalishda

2021-2022-yillarda xotin-qizlarni himoya qilish sohasida strategik, reabilitatsion va manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yagona tizimga birlashtirildi.

2021-yil 28-maydan 2030-yilga qadar O‘zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlanib, siyosat, iqtisodiyot, huquq, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlashning uzoq muddatli vazifalari belgilandi.

Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi qarori asosida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilib, ular zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga vaqtincha boshpana, psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishga ixtisoslashtirildi.



Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-martdagi farmoni bilan esa oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashning milliy mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Natijada tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalash huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanmay, huquqiy va psixologik yordam, vaqtincha boshpana, reabilitatsiya, bandlik, kasbga tayyorlash, moddiy ko‘mak hamda mahallada ijtimoiy ishlarni qamrab olgan kompleks tizimga aylandi. Shu bilan birga, “Ayollar daftari” va boshqa manzilli dasturlar iqtisodiy qaramlik, ixsizlik va uy-joy muammolari kabi zo‘ravonlik xavfini kuchaytiruvchi omillarni bartaraf etishning muhim amaliy mexanizmi sifatida shakllandi.

### Javobgarlikning muqarrarlari va kompleks xizmatlar

2023-2025-yillarda oilaviy-maishiy zo‘ravonlik kriminalizatsiya qilinib, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar hamda ularning farzandlariga kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi shakllantirildi.

2023-yil 11-aprelda qabul qilingan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda oilaviy-maishiy zo‘ravonlik uchun ma‘muriy, Jinoyat kodeksida esa jinoiy javobgarlik belgilandi. Shuningdek, shahvoniy shilqimlik, voyaga yetmaganlar va xotin-qizlarni himoya qilishga oid qator normalar kuchaytirildi.

Prezidentimizning 2024-yil 10-maydagi va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi qarorlari asosida tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning yangi tartiblari joriy etildi. Ular doirasida jabrlanuvchilarni reabilitatsiya markazlariga joylashtirish, vaqtincha boshpana bilan ta‘minlash, himoya orderi va jabrlanuvchilar haqidagi ma‘lumotlarni “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali “Inson” markazlariga real vaqt rejimida yuborish, shoshilinch qabul bo‘limlarida birlamchi ko‘mak xonalarni tashkil etish, “102” orqali kelib tushgan murojaatlarni hisoblab olish hamda ijtimoiy xizmatlar monitoringini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur bosqichda milliy tizim ogohlantirish va yarashtirishga asoslangan yondashuvdan huquqiy javobgarlik, jabrlanuvchining xavfsizligi va kompleks reabilitatsiyani ta‘minlashga qaratilgan zamonaviy modelga to‘liq o‘tdi.

### Raqamli, riskka asoslangan va ixtisoslashgan choralar

2026-yildan xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish tizimini riskka asoslangan, raqamli va ixtisoslashgan model asosida rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi.

Prezidentimizning 2026-yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq

va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi farmoni bilan zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda barvaqt profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifalar etib belgilandi.

2026-yil 1-apreldan himoya orderi berilgan xotin-qizlarning roziligi bilan ularning mobil qurilmalarga “my.ihma.uz” tizimi orqali SOS chaqiruv funksiyasini o‘rnatish joriy etildi. Shuningdek, erta nikoh va 16 yoshgacha bo‘lgan homiladorlik holatlari haqida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, FHDO, mahalla va diniy tashkilotlar ishtirokida ichki ishlar organlari hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga tezkor xabar berishning idoralararo mexanizmi yo‘lga qo‘yilmoqda.

2027-yil 1-yanvardan ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik bilan bog‘liq yurialarni, qoida tariqasida, maxsus tay-yorgariydan o‘tgan tergovchilar va sudyalardan tomonidan tergov qilish va ko‘rib chiqish belgilandi. Shu munosabat bilan 2026-yil yakuniga qadar har bir hududda kamida bittadan tergovchi va sudyani xalqaro standartlar asosida tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlar ham zo‘ravonlik holatlarini oshkor qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va davlat organlarining tezkor munosabatini ta‘minlashda muhim omilga aylandi. Natijada zo‘ravonlikni “oilaviy sir” sifatida qabul qilish o‘rniga unga murosasiz munosabatni shakllantirish tendensiyasi tobora kuchaymoqda.

Shu tariqa xotin-qizlarni himoya qilish tizimi xavfni barvaqt aniqlash, raqamli texnologiyalar orqali monitoring qilish va ixtisoslashgan institutlar faoliyatiga tayangan zamonaviy profilaktika modeliga bosqichma-bosqich o‘tmoqda.

### Tizimning o‘zgargan qiyofasi

Islohotlar natijasida zo‘ravonlik huquqiy jihatdan tan olindi. Ilgari shaxsiy yoki oilaviy nizo sifatida qaralgan xatti-harakatlar endilikda tazyiq, iqtisodiy, ruhiy, jinsiy va jismoniy zo‘ravonlik sifatida huquqiy baholalanmoqda.

Tezkor himoya instituti yaratildi. Himoya orderi jabrlanuvchini jinoyat sodir bo‘lishini kutib o‘tirmasdan muhofaza qilish imkonini berdi.

Javobgarlik differentsiatsiya qilindi. 2023-yildan oilaviy zo‘ravonlik uchun alohida ma‘muriy va jinoiy javobgarlik joriy etildi.

Reabilitatsiya va ijtimoiy xizmatlar shakllantirildi. Jabrlanuvchilarga boshpana, psixologik, huquqiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi vujudga keldi.

Raqamli murojaat imkoniyatlari kengaydi. Onlayn murojaat, elektron himoya orderi, QR-kod, yagona axborot tizimi va SOS funksiyalari himoyani tezkor va manzilli qilishga yo‘l ochmoqda.

Jamoatchilik munosabati o‘zgarmoqda. Zo‘ravonlikka toqat qilish yoki uni “oilaviy masala” sifatida yashirish o‘rniga uni huquqbuzarlik va inson huquqlari buzilishi sifatida qabul qilish kuchaymoqda. Bu o‘zgarishlar oddiy statistika emas, ular jamiyat ongidagi buriilishni ifodalaydi.

### Islohotlarning xalqaro e‘tirofi

Bugun mamlakatimiz xalqaro tashkilotlar, nufuzli reyting agentliklari va ekspertlar tomonidan xotin-qizlarni himoya qilish sohasida xalqaro standartlarni bajaruvchi davlat sifatidagina emas, balki mintaqada mazkur yo‘nalishda huquqiy islohotlarni izchil amalga oshirayotgan mamlakat sifatida ham e‘tirof etilmoqda.

Jumladan, Jahon banking “Women, Business and the Law” hisobotida O‘zbekiston xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash sohasida huquqiy islohotlarni tez amalga oshirgan dunyodagi eng ilg‘or besh davlat (Top Five Improvers) qatoriga kiritildi.

Xalqaro e‘tirof faqat qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmadi. Gender sohasida ochiqlik va hisobdorlikni ta‘minlash borasida ham mamlakatimiz sezilarli natijalarga erishdi. Open Data Watch xalqaro tashkilotining “Open Gender Data Index” reytingida O‘zbekiston 195 davlat ichida 18-o‘rinni egallab, dunyoning eng yaxshi yigirmata mamlakati qatoridan joy oldi. Mazkur ko‘rsatkich davlat organlari xotin-qizlarga oid ma‘lumotlarni ochiq e‘lon qilish va statistik shaffoflikni ta‘minlash yo‘lida sezilarli ilgariyganini tasdiqlaydi.

Jorjtan universiteti tomonidan e‘lon qilinadigan “Women, Peace and Security Index” reytingida O‘zbekiston dunyo davlatlari orasida eng yaxshi yuztalik mamlakatlar qatoriga kirdi. Ushbu natija ayollarning huquqiy himoyasi, xavfsizligi va ijtimoiy imkoniyatlarini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni xalqaro mezonlar asosida ham munosib baholalanayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, islohotlarning keyingi bosqichi aniq va o‘lchanadigan natijalarga tayanishi kerak. Birinchi navbatda, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik bilan bog‘liq statistik ma‘lumotlar tarqoqliq bartaraf etilishi zarur. Ichki ishlar, sud, prokuratura, sog‘liqni saqlash, “Inson” markazlari, reabilitatsiya muassasalari va fuqarolik jamiyati ma‘lumotlari hozircha bir-biridan alohida yuritiladi.

Umuman, nazarimda, ushbu yo‘nalishdagi ishlar rivojining keyingi bosqichida quyidagi amaliy takliflarning amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Masalan, “Xavfsizlik — javobgarlik — tiklanish” milliy modelini joriy etish. Unda xotin-qizlarni himoya qilish tizimi uch tayanachga quriladi: zo‘ravonlikni zudlik bilan to‘xtatish; zo‘ravon shaxsga nisbatan muqarrar va mutanosib chora qo‘llash; jabrlanuvchining sog‘lig‘i, huquqlari, daromadi va mustaqil hayotini tiklash.

Shuningdek, idoralararo yagona “GBV Case ID” tizimini tashkil etish, ochiq milliy statistika panelini yaratish, yuqori xavfli zo‘ravon shaxslarni elektron nazorat qilish tizimini eksperiment tariqasida joriy etish, har bir hududda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik ishlarni ko‘rib chiqishga ixtisoslashgan tergovchi — prokuror — sudya janjirini yaratish, jabrlanuvchilar uchun maxsus advokatlar reyestrini kengaytirish va “bitta murojaat nuqtasi”ni har bir hududda amaliy joriy etish, raqamli zo‘ravonlik bo‘yicha maxsus huquqiy mexanizmlarni joriy qilish va milliy viktimgoqlik tadqiqotlarni muntazam o‘tkazish ham tizim samaradorligida foydadan xoli bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish siyosati mustaqillik yillarida konstitutsiyaviy tenglikdan ijtimoiy himoyaga, institutsional qo‘llab-quvvatlashdan maxsus qonunchilikka, himoya orderidan ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka, kompleks ijtimoiy xizmatlardan raqamli va ixtisoslashgan himoyagacha bo‘lgan ulkan evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi.

Endi navbatdagi vazifa yangi organlar yoki ko‘proq hisobotlar tashkil etish emas. Asosiy mezon — har bir murojaat ortida turgan insonning hayotida nima o‘zgargani muhim. Shundagina tizimning samarasi himoya orderlari yoki o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, saqlab qolingan hayotlar, takrorlanmagan zo‘ravonlik holatlari va qayta tiklangan inson taqdirleri bilan o‘lchanadi.

Yangi O‘zbekistonning eng kuchli qiyofasi ham aynan shu yerda namoyon bo‘ladi, ya‘ni davlat bir ayolning qo‘rquvini o‘zining tashvishi, uning qadr-qimmatini o‘zining mas‘uliyati, uning xavfsiz kelajagini esa milliy taraqqiyotning ajralmas sharti deb biladi. Xotin-qizni himoya qilish oilani, bolani, jamiyatni va ertangi kunni himoya qilishdan iborat.



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

## Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

# IJRO INTIZOMI ORQALI TA'MINLANAYOTGAN USTUVOR NATIJALAR



**Ahmad SUVONQULOV,**  
“O‘zsuvta‘minot” AJ boshqaruvi  
raisi vazifasini bajaruvchi

### Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va aholi turmush darajasini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Suv ta‘minoti sohasidagi islohotlar ana shu maqsadlar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Bugun “O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida ijro intizomi tashkilot samaradorligini belgilaydigan asosiy tamoyilga aylangan. Bu yondashuv 16 ta hududiy va magistral aksiyadorlik jamiyati hamda 14 ta hududiy injiniring kompaniyasi faoliyatini yagona boshqaruv tizimi atrofida birlashtirmoqda. Chunki zamonaviy davlat boshqaruvida qaroring sifati va o‘z vaqtida ijro etilishi samaradorlikni belgilaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, ijro intizomi bugun rasmiy talab doirasidan chiqib, islohotlar samaradorligini ta‘minlovchi doimiy mexanizmga aylangan.

Ushbu mexanizmnin amaliy natijasi sifatida 2026-yil birinchi yarim yillikda belgilangan vazifalar doirasida “O‘zsuvta‘minot” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va yig‘ilish bayonlaridagi 384 ta, Prezident Administratsiyasi rezolyutsiyalaridagi 55 ta hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlaridagi 23 ta topshiriq to‘liq ijro etildi. Bu ko‘rsatkich tizimda shakllangan qat‘iy nazorat, aniq rejalashtirish va shaxsiy javobgarlik tizimining amaliy samarasini namoyon etadi.

Aynan shu natijalarga tayangan holda, joriy yilning yarim yilligi davomida kelib tushgan barcha qonunchilik hujjatlari yagona elektron reyestrga kiritilib, har bir topshiriq bo‘yicha alohida nazorat rejalari ishlab chiqildi. Shu asosda ijrochilar, muddatlar va amalga oshirish mexanizmlari aniq belgilab qo‘yilishi natijasida ijro jarayoni tizimli va uzluksiz shaklga keltirildi.

Mazkur tizim barqaror ishlashi uchun har bir topshiriq ijrochiga o‘z vaqtida yetkazilib,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida elektron monitoring tizimi, avtomatik nazorat va onlayn hisobot platformalari orqali har bir topshiriq real vaqt rejimida kuzatib borilmoqda. Bu inson omili ishtirokini qisqartirib, shaffoflikni oshirish va boshqaruvda aniqlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Natijada ijro intizomi kuchli bo‘lgan tizimda xato va kamchiliklar kamayadi, boshqaruv aniqligi oshadi va natijalar barqarorlashadi. Bu jarayon faqat texnik nazorat emas, balki jamoa mas‘uliyatini shaxsiy javobgarlik bilan uyg‘unlashtiradigan boshqaruv madaniyatidir. Shu nuqtayi nazardan, KPI tizimi va rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilib, xodimlar faoliyati kunlik, haftalik va oylik baholab borilmoqda.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan suv ta‘minoti sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan maqsadli dastur va vazifalar ijrosi qat‘iy nazoratga olingan.

Birgina misol: 2026-yil uchun belgilangan asosiy vazifalardan biri — 310 ming kishini ilk bor markazlashgan toza ichimlik suv bilan ta‘minlashni oylaylik. Bu raqam ortida yuzlab oilalarning ko‘p yillar davomida quduq suvi hamda tashib keltiriladigan suvni iste‘mol qilib kelgani yoki mavsumiy manbalarga tayanib kun o‘tkazgani turadi. Bunday hududlarda har bir kun suv topish bilan boshlanadi. Bu jarayon vaqt, mehnat va imkoniyatni cheklab qo‘yadi. Yuqoridagi vazifa amalga oshirishi ortidan oilalarning kun tartibi yengillashadi, bolalarning o‘qish va dam olishga vaqti yetadi, sanitariya sharoiti yaxshilanadi.

tarmoq va 44 ta inshoot barpo etilishi rejalashtirilgan. Xalqaro hamkorlik orqali faqat moliyaviy resurs emas, balki loyiha boshqaruvi, sifat nazorati va texnik standartlar ham tizimga kirib kelmoqda.

Har bir mas‘ul uchun shaxsiy “yo‘l xaritasi” belgilangan. Bu jamoaviy mas‘uliyat bilan bir qatorda shaxsiy javobgarlikni ham kuchaytiradi. Natija uchun aniq rahbar va aniq jamoa mas‘ul bo‘ladi.




“

**2026-yil birinchi yarim yillikda belgilangan vazifalar doirasida “O‘zsuvta‘minot” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va yig‘ilish bayonlaridagi 384 ta, Prezident Administratsiyasi rezolyutsiyalaridagi 55 ta hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlaridagi 23 ta topshiriq to‘liq ijro etildi.**

”

Bu vazifalarni amalga oshirishda “Ijro.gov.uz” tizimi orqali qat‘iy nazorat o‘rnatilgan. Jumladan, Jalaquduq tumani markazida ichimlik suv tarmoqlari yangilanib, suv yig‘ish inshooti rekonstruksiya qilinoqda. Qarshi tumanidagi “Chaman” MFY hamda Toyloq tumanidagi Charog‘bon massivida “Yangi

Ushbu vazifalarni samarali bajarish maqsadida boshqaruv raisining o‘rinbosarlari, hududiy tashkilot rahbarlari va tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari e‘tibori “Ijro.gov.uz” tizimi orqali topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishga qaratilgan.



O‘zbekiston” massivlari uchun ichimlik va oqova suv tizimlari barpo etilmoqda.

Shuningdek, Buxoro tumanidagi “Bog‘idash” MFY hududida, Zarafshon shahridagi yangi kichik tumanlarida hamda Davlatobod tumanida barpo etilayotgan yangi shaharcha infratuzilmasini suv bilan ta‘minlash bo‘yicha yirik loyihalar izchil davom ettirilmoqda. Kosonsoy shahridagi “Obod” suv tozalash inshootini rekonstruksiya qilish orqali esa yangi hududlarni barqaror suv manbai bilan ta‘minlash maqsad qilingan.

Hududlarda, shuningdek, Shovot, Hazorasp, Beshariq, Qo‘shko‘pir tumanlari va Urganch shahridagi qurilish va ta‘mirish ishlari orqali nafaqat yangi massivlar, balki aholi punktlari infratuzilmasi ham bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Urganch shahridagi “Al-Xorazmiy” majmuasi misolida esa zamonaviy suv va oqova tizimlari bilan ta‘minlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlanishi ko‘zda tutilgan.

Bu loyihalarning yana bir muhim jihati shundaki, ular orqali xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi to‘rtta yirik loyiha ham parallel ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Aynan shu tizimli va qat‘iy ijro orqali loyihalarning natijasi texnik ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. Eng asosiysi, ular inson hayotiga bevosita ta‘sir qiladi. Ya‘ni suv yetkazib berilgan har bir xonadonda kundalik tashvishlar yengillashadi. Vaqt va mehnat tejaladi, sanitariya sharoiti yaxshilanadi. Natijada odamlarning kayfiyati ko‘tariladi, yashash tarzi o‘zgaradi. Yangi O‘zbekistonda insonni qadrlash tamoyili amalda ishlayotganiga ishonch yanada mustahkamlanadi va odamlar hayotdan rozi bo‘lib yashaydi.

borilmoqda. Bu shaffoflikni ta‘minlash, inson omili ishtirokini kamaytirish va qaror qabul qilish tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvida aholi bilan ochiq muloqot qilish, fuqarolar murojaatlarini chuqur o‘rganish va ularda ko‘tarilayotgan masalalarni manzilli hal etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, “O‘zsuvta‘minot” AJ va uning tizimdagi tashkilotlarida aholi murojaatlari bilan ishlash jarayoni yanada takomillashtirilib, muammolarni oldindan aniqlash, profilaktik choralarini kuchaytirish va tezkor hal etishga qaratilgan yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Natijada murojaatlar soni kamayishi bilan birga ularni hal etish samaradorligi ham sezilarli darajada oshdi.

Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yilligi hamda 2026-yilning shu davri qiyosiy tahliliga ko‘ra, “O‘zsuvta‘minot” AJ va uning tizimdagi tashkilotlariga kelib tushgan murojaatlar soni 8702 tadan 6997 taga kamaygan. Ya‘ni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan murojaatlar 1705 taga yoki 20 foiz qisqargan. Murojaatlarning 6226 tasi yoki 98 foizi ijobiy hal etilgani tizimda aholi bilan ishlash sifati yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur natijalar ortida sohadagi islohotlar, ichimlik suv ta‘minoti infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar, aholi bilan muntazam muloqot mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi hamda rahbarlarning shaxsiy mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mujassam.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni davlat boshqaruvida ijro intizomini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Mazkur hujjat bilan ijro intizomiga mas‘ul bo‘linmalarining birinchi rahbarga bo‘ysundirilishi rahbarlar mas‘uliyatini kuchaytirish va ijro samaradorligini oshirishning muhim institutsional mexanizmiga aylandi.

Farmon talablaridan kelib chiqqan holda “O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyati va uning tizimida qonunchilik hujjatlari hamda topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning samarali mexanizmlari joriy etildi. Hududlarda islohotlar natijadorligini baholash hamda ijro intizomini ta‘minlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, ijroni tashkil etishda birinchi rahbarlarning shaxsiy mas‘uliyati sezilarli darajada oshdi. Natijada farmon qabul qilining davrdan buyon tizimdagi

2653 ta topshiriqning o‘z vaqtida ijro etilishi va nazorat qilinishi ta‘minlandi. Bu aksiyadorlik jamiyati tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda boshqaruv sifati yanada takomillashtirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Aynan shu yondashuvning mantiqiy davomi sifatida joriy yildan boshlab murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari, sayyor qabullar samaradorligi va aholi muammolarining yechimi rahbarlar faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri — KPI tizimiga kiritildi. Bu sohada yangi mas‘uliyat muhitini shakllantirib, rahbarlar faoliyatini endi nafaqat bajarilgan ishlar hajmi, balki aholi roziligi, murojaatlarning o‘z vaqtida hal etilishi va

boshqaruvda “murojaatni hal qilish”dan “muammoning oldini olish” tamoyiliga o‘tish jarayoni kechmoqda.

Islohotlar samarasini bugun odamlar hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Suv yetgan joyda hayot nafaqat yengillashadi, balki yangilanadi. Bolalarning sog‘lom o‘sishi, oilalarning xotirjamligi va mahallalarning obodligi aynan shu ezgu maqsadning amaliy ifodasidir.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori asosida hukumat qarorlari ijrosini samarali tashkil etish, ijro intizomini mustahkamlash, ijro uchun mas‘ul rahbarlarning ham javobgarligi oshirilgan.

Natijada o‘tgan davrda Vazirlar Mahkamasining 1082 ta topshiriq‘idan 1028 tasining ijrosi ta‘minlandi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 13-mart kuni ijro intizomi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda belgilab bergan topshiriqlari asosida ichimlik suv ta‘minotidagi dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bevosita jildizda bartaraf etish yuzasidan aniq va tezkor choralar ko‘rib borilmoqda.

Eng muhimi, topshiriqlar muddatini uzaytirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasi Rayosatiga kiritish holati keskin kamaytirildi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida respublikamiz bo‘ylab 17 ta ichimlik suv ta‘minoti obyektining foydalanishga topshirilishi aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning yana bir muhim amaliy natijasidir. Keyingi yillarda suv ta‘minoti sohasidagi keng ko‘lamli loyihalar muhandislik infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan cheklanmay, eng avvalo, insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur obyektning ishgah tushirilishi aholining farovonligini ta‘minlash, hududlarni barqaror rivojlantirish va xalq manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatining izchil davomidir. Natijada 452 ming kishining ichimlik suv ta‘minoti yanada yaxshilanadi, 417 mingdan ziyod fuqaro esa ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar zamirida yuz minglab oilalarning hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar, salomatlikni mustahkamlash, turmush sifati va ertangi kunga ishonch mujassam.

Mazkur jihatlar joriy yil 20-iyul kuni davlatimiz rahbari huzurida bo‘lib o‘tgan selektor yig‘ilishida ham alohida ta‘kidlandi. Unda ichimlik va oqova suv xizmatlarini yanada takomillashtirish, tarmoqdagi loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, ijro intizomini kuchaytirish hamda sohani zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda suv ta‘minoti sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 10 barobar oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada 7,7 million kishi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlandi. Biroq erishilgan natijalar yangi vazifalar uchun poydevor ekani ta‘kidlanib, kelgusi yillarda ichimlik suv ta‘minoti qamrovini 90 foizga, shaharlarda kanalizatsiya xizmatlari qamrovini 80 foizga yetkazish, eng muhimi, har bir loyihani inson manfaati nuqtayi nazaridan sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Yig‘ilishda sohani boshqarishning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, ichimlik suvni ishlab chiqarish va uni iste‘molchilarga yetkazib berish vazifalarini ajratish, magistral suv ta‘minoti korxonalarini tashkil etish hamda ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflarini iqtisodiy asoslangan va shaffof mezonlar asosida belgilash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi. Xususan, iste‘molchilar bilan hisob-kitoblarni to‘liq onlayn tizimga o‘tkazish, masofadan ma‘lumot uzatuvchi zamonaviy suv hisoblagichlarini bosqichma-bosqich joriy etish, suv tarmoqlari va inshootlarining raqamli xaritasini yaratish, SCADA, GIS, telemetriya va yagona billing tizimlarini keng tatbiq etish orqali suv yo‘qotishlarini sezilarli qisqartirish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib nasos uskunalarini faoliyatini tahlil qilish, avariylarni oldindan aniqlash va aholi murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish bo‘yicha yangi yechimlar joriy etiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar sohada faqat yangi loyihalarni amalga oshirishni emas, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va ijro intizomini yanada mustahkamlashning yangi bosqichini boshlab bermoqda. Bu vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, eng avvalo, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlari sifatini yanada yaxshilash, inson hayotida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Har bir yangi suv inshooti, har bir xonadonga yetib borgan toza suv mamlakatimizdagi inson manfaati ustuvor ekanining amaliy ifodasidir. Ana shunday natijalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining mazmun-mohiyatini yanada teran ochib, davlat siyosati markazida inson qadri, xalq farovonligi va qabul qilinayotgan qarorlarning so‘zsiz ijrosi turganini tasdiqlamoqda.

“


**Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida respublikamiz bo‘ylab 17 ta ichimlik suv ta‘minoti obyektining foydalanishga topshirilishi aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning yana bir muhim amaliy natijasidir. Keyingi yillarda suv ta‘minoti sohasidagi keng ko‘lamli loyihalar muhandislik infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan cheklanmay, eng avvalo, insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.**

doimiy monitoringga olindi. Muddati yaqinlashgan yoki kechikish xavfi paydo bo‘lgan vazifalar bo‘yicha tezkor eslatmalar yuborilib, ijro jarayonida uzilishlarga yo‘l qo‘yilmasligi ta‘minlandi. Shu bilan birga, dushanba va juma kunlari rahbariyatga taqdim etiladigan tahliliy axborotlar boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini bermoqda.

Ijro intizomini yanada mustahkamlashda raqamli texnologiyalar hal qiluvchi o‘rin tutadi.

darajasini oshirish uchun keng ko‘lamli qurilish va rekonstruksiya ishlarini bajarish rejalashtirilgan. Davlat dasturlari doirasida 1,7 trillion so‘m hisobidan 1394 kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda 84 ta inshoot qurilishi va qayta tiklanishi belgilangan. Bu ishlar orqali obihayot chekka hududlarga yetib borishi ta‘minlandi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi 21 ta loyiha orqali 462 million dollar mablag‘ jalb qilinib, 1161 kilometr



javobgarligi oshirilmoqda. Topshiriqlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarish bo‘yicha talabchanlik yangi bosqichga ko‘tarilgan.

Raqamli monitoring tizimlari, elektron hisobot platformalari va avtomatik nazorat mexanizmlari orqali ijro jarayoni real vaqt rejimida kuzatib

erishilgan amaliy natijalar orqali ham baholash imkonini bermoqda.

Bunday yondashuv muammolarni faqat oqibat sifatida bartaraf etish emas, balki ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganish va oldini olishga xizmat qilmoqda. Ya‘ni

Bir paytlar universitet deganda ko‘z oldimizda baland binolar, gavjum auditoriyalar va diplom olish uchun kelgan yoshlar gavdalanar edi. Bugun esa vaziyat mutlaqo boshqacha. Endi universitetning haqiqiy qiyofasi uning laboratoriyalarida tug‘ilayotgan g‘oyalar, xalqaro jurnallarda e‘lon qilinayotgan ilmiy maqolalar, xorij universitetlari bilan imzolananayotgan kelishuvlar va jamiyatga qanday kadrlarni yetkazib berayotgani bilan belgilanadi.



Sherzod NE‘MATOV,  
Qarshi davlat texnika universiteti rektori

### Iqtisodiyot ilmiy g‘oyaga tayanadi

So‘nggi ikki yilda Qarshi davlat texnika universitetida kechayotgan o‘zgarishlarga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqat yanada oydinlashadi: bu yerda oddiy ta‘lim muassasasi emas, balki muhandislik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan yangi maktab barpo etilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan universitet qisqa vaqt ichida nafaqat tashkiliy tuzilmasini shakllantirdi, balki rivojlanishning aniq strategiyasini ham belgilab oldi. Bu strategiyaning markazida esa bitta g‘oya turadi: ilm iqtisodiyotga xizmat qilishi kerak.

Shuning uchun bugun universitet auditoriyalarida faqat dars o‘tilmayapti. Bu yerda ertangi energetika tizimi muhokama qilinmoqda. Sun‘iy intellektning yangi algoritmlari yaratilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Karbon chiqindilarini kamaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, neft-gazni chuqur qayta ishlash kabi masalalar yosh olimlarning kundalik izlanishlariga aylangan.

Bugun universitetda yuzlab yosh tadqiqotchilar faoliyat yuritadi. Laboratoriyalarda esa yangi g‘oyalar sinovdan o‘tmoqda. Yana bir muhim jihat, bu g‘oyalar faqat O‘zbekiston uchun emas. Ularning aksariyati xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilmoqda. Xitoy, Italiya, Turkiya, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar olimlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani ilm-fanning chegara bilmasligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yaqin yillarda universitetda yuz bergan o‘zgarishlar ko‘lamini faqat raqamlar orqali ham tasavvur qilish mumkin. Biroq bu raqamlarning har biri ortida uzluksiz jarayon, katta mehnat va alohida natija bor. Masalan, bugun universitetda 274 yosh olim — tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchi ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Bu ertangi kun professorlari, yangi texnologiyalar mualliflari va mamlakat sanoatining ilmiy tayanchi bo‘ladigan avlod shakllanayotganini anglatadi.

Universitetda faoliyat yuritayotgan 810 professor-o‘qituvchining asosiy qismi ilmiy darajaga ega. Ilmiy salohiyatning 48,6 foizga yetgani qisqa vaqt uchun muhim natija hisoblanadi.

Ilmiy natijaning eng muhim ko‘rsatkichi esa xalqaro ilmiy maydondagi faollikdir. 2026-yilning yarim yilligida universitet olimlari tomonidan 985 ta xalqaro ilmiy maqola chop etildi. Bu deyarli har kuni besh-oltitadan ilmiy ish xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi deganidir. Agar shu sur‘at saqlansa, bir yilda ikki mingga yaqin ilmiy maqola yaratiladi. Bu esa nafaqat universitet, balki butun mintaqaga ilmiy salohiyati o‘sib borayotganining muhim belgidir.


Ayniqsa, “Scopus”ning Q1 va Q2 kvartili jurnallarida qisqa davrda 94 ta maqola chop etilgani alohida e‘tiborga loyiq. Chunki bunday

jurnallarga yuborilgan maqolalar xalqaro ekspertlar tomonidan puxta tekshiriladi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati baholanadi. Demak, Qarshi davlat texnika universitetida yaratilayotgan ilmiy g‘oyalar nafaqat mamlakat, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat talablariga ham javob bermoqda. Bu yerda muhim jihat bor. Ilm-fanning haqiqiy qiymati maqolalar soni bilan emas, uning iqtisodiyotga qay darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shu ma‘noda, universitetda amalga oshirilayotgan 8 ta davlat granti loyihasiga alohida to‘xtalish lozim. Qariyb 10 milliard so‘mlik bu loyihalar dolzarb sohalariga yo‘naltirilgan. Bugun dunyo geotermal energiya, sun‘iy intellekt, energiya tejovchi texnologiyalar, karbonat angidridni qayta ishlash, biogaz qurilmalari kabi masalalar yechimi ustida bosh qotirmoqda. Demak, universitet olimlari ham ushbu global muammolarning mahalliy yechimlarini izlamoqda. Yana bir e‘tiborli holat — universitet olimlari tomonidan xalqaro tanlovlarga taqdim etilgan 24 ta loyihaning umumiy qiymati qariyb 40 milliard so‘mini tashkil etadi. Bu loyihalar universitetning ilmiy salohiyati yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ladi.

Bugun universitet faqat ilm yaratmayapti, uni iqtisodiyotga ham olib kirmoqda. Buning yorqin misoli sifatida “Energo Control Lab” spin-off korxonasi faoliyatini keltirish mumkin.

### Gap diplomda emas...

Har yili minglab yoshlar universitetni tamomlaydi. Ammo ularning hammasi ham mehnat bozoridagi “Sen nima qila olasan?” degan savolga javob beradimi? Shunisi muhim. Universitetimizda ana shu haqiqatdan kelib chiqib, bakalavriat va magistratura dasturlari ish beruvchilar, yirik sanoat korxonalari hamda




xorijiy universitetlar tajribasi asosida qayta tahlil qilindi. Natija nima bo‘ldi? 2026/2027-o‘quv yili uchun 9 ta yangi bakalavriat va 8 ta yangi magistratura mutaxassisligi ochildi. Bir qarashda bu ham oddiy raqamdek. Lekin har bir yangi ta‘lim yo‘nalishi ortida yangi mehnat bozori, yangi texnologiya va yangi iqtisodiy ehtiyoj turibdi. Bugun universitet kasb o‘rgatmayapti. U hali paydo bo‘lib ulgurmagan kasblarga ham kadr tayyorlashni boshlamoqda.

Universitet tarixida birinchi marta 45 ta yo‘nalish bo‘yicha kechki ta‘lim, 13 ta yo‘nalish bo‘yicha esa masofaviy ta‘lim, 83 ta bakalavriat va 64 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan. O‘quv rejadagi 234 ta fan dunyoning TOP-300 universitetlari dasturlari asosida qayta ishlangan. Buning ortida katta ma‘no bor. Sababi, bugun raqobat universitetlar o‘rtasida emas, dasturlar o‘rtasida kechmoqda. Talaba Samarqandda, Qarshida yoki Berlinda

o‘qimaydimi, avvalo, uning bilim darajasi xalqaro mezoniga yaqinlashishi kerak. Shuning uchun o‘quv dasturlari o‘zgarishi lozim. Qarshi davlat texnika universitetida aynan shu yo‘l tanlangan.



Universitetimizning 3 ta magistratura va 2 bakalavr ta‘lim yo‘nalishi Germaniyaning ASIIN kompaniyasida xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi. Endi talabaning diplomiga qo‘shib xalqaro akkreditatsiya sertifikatini ham beramiz. Demak, bitiruvchining qo‘lida universitet diplomi, muhandislikka oid xalqaro sertifikat, til bilish bo‘yicha yana bir sertifikati bo‘lsa, u ishsiz qolmaydi. Nafaqat O‘zbekistonda, balki chet elda ham o‘ziga munosib, sardaromad ishini oson topa oladi.



### Korxonadagi “auditoriya”

Ko‘p yillar davomida ta‘limning eng og‘riqli nuqtasi bitiruvchining amaliy ko‘nikmaga ega emasligi edi. U diplom olardi, lekin ish beruvchi uni yana qayta o‘qitardi. Oqibatda ham vaqt, ham mablag‘ yo‘qotilardi. Bugun esa vaziyat o‘zgarmoqda. Masalan, Qarshi davlat texnika universitetida 10 dan ortiq yirik sanoat korxonasi bilan hamkorlikda 15 ta ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bugun “TAT COLA”, “Indorama Agro”, “Uzbekistan GTL”, “Sho‘rtan gaz-kimy o majmuasi” MCHJ, Dehqonobod kaliy zavodi, “O‘zbektelemek” singari korxona va tashkilotlar bilan bu borada manfaatli hamkorlik o‘rnatilgan. Demak, talaba endi ishlab chiqarishni kitobdan emas, zavodning o‘zida o‘rganyapti. Muhandislikni chizmada

emas, haqiqiy uskuna oldida o‘zlashtiryapti. Bu esa diplom bilan ish joyi o‘rtasidagi masofani sezilarli qisqartirmoqda. 200 dan ziyod talabaning dual ta‘lim asosida tahsil olayotgani ana shu hamkorlikning amaldagi ifodasidir.

Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda malaka oshirdi. Buning natijasi auditoriyalarda yangi pedagogik yondashuvlar, zamonaviy laboratoriyalardan samarali foydalanish va xalqaro talablarga mos o‘qitish usullarida namoyon bo‘lmoqda. Har qanday universitet uchun xalqaro reytinglarda munosib o‘rin egallash faqat nufuz masalasi emas. Bu ta‘lim sifati, ilmiy salohiyat va boshqaruv tizimining bahosidir. Shu nuqtayi nazardan, Qarshi davlat texnika universitetining “Times Higher Education Impact Rankings” reytingida BM Tning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha baholanib, dunyo universitetlari orasida 1500+ toifasidan o‘rin olgani e‘tiborga molik. Bu hali eng yuqori cho‘qqi emas, ammo to‘g‘ri yo‘nalish tanlanganining muhim belgisidir. Yaqinda Yevropa Komissiyasi Erasmus+ dasturining 2026-yilgi “Erasmus Mundus Joint Masters” (EMJM) tanlovi natijalarini e‘lon qildi. Unga ko‘ra, Qarshi davlat texnika universiteti joriy yilda “Erasmus Mundus” qo‘shma magistrlik dasturi asosida moliyalashtirish uchun tanlab olingan universitetlardan biri bo‘ldi.

Bugungi talaba ertangi kunda nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatlasha olishi lozim. Shu bois, akademik mobilik dasturlarining ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. 2025/2026-o‘quv yilida 11 talaba Erasmus+ KA171, Slovakiya milliy stipendiya dasturi hamda Janubiy Koreya va Xitoy grantlari orqali xorijda tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim jihati shundaki, u faqat auditoriya devorlari ichida qolib ketmayapti. Malayziyaning Petronas texnika universiteti bilan hamkorlikdagi “Salom, Qarshi!” loyihasi doirasida talabalar tomonidan Qarshi tumanidagi Gulshan mahallasida quyosh panellari va quyosh energiyasida ishlovchi suv nasoslari o‘rnatildi. Ilm-fanning haqiqiy qadri ham odamlar hayotini yengillashtirish, jamiyatga amaliy foyda keltirishdir.

Albatta, xalqaro darajaga chiqish moliyaviy qo‘llab-quvvatlashsiz bo‘lmaydi. Erasmus+ HEMUA loyihasi doirasida jalb qilingan 32 ming dollardan ortiq grant mablag‘lari va Germaniyaning “ProsiCa” kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan 100 ming dollarlik zamonaviy Smart panellar universitet moddiy-

### Mehnat bozorining talabi

Xorijiy universitetlar va kompaniyalar bilan hamkorlik faqat memorandum imzolash bilan cheklansa, barchasi qog‘ozlarda qolib ketaveradi. Universitet faoliyatiga nazar tashlasak, imzolangan har bir kelishuvni amaliyot bilan boyitishga intilish ko‘zga tashlanadi. Agar 2025-yil yakuniga qadar 20 ga yaqin xorijiy universitet bilan hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lsa, bugun ularning soni 25 taga yetdi. Eng muhimi, bu aloqalar talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar, akademik mobilik va ilmiy anjumanlar orqali mazmun kasb etmoqda.

Zamonaviy universitetni auditoriyaga taklif etilgan olimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Joriy yilning dastlabki olti oyida Polsha, Vengriya, Belarus, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Malayziya, Qozog‘iston kabi davlatlardan 68 dan ortiq professor va mutaxassis universitetimizga tashrif buyrdi. Xalqaro tajriba faqat chet ellik olimlarni taklif qilish bilan cheklanmaydi. Universitet professor-o‘qituvchilari ham xorijga chiqib, ilg‘or tajribani o‘rganmoqda. Bu yilning o‘zida 93 professor-o‘qituvchi va rahbar xodim Germaniya, Ispaniya, Polsha, Vengriya,

810 professor-o‘qituvchining asosiy qismi ilmiy darajaga ega. Ilmiy salohiyatning 48,6 foizga yetgani qisqa vaqt uchun muhim natija hisoblanadi.

Ilmiy natijaning eng muhim ko‘rsatkichi esa xalqaro ilmiy maydondagi faollikdir. 2026-yilning yarim yilligida universitet olimlari tomonidan 985 ta xalqaro ilmiy maqola chop etildi. Bu deyarli har kuni besh-oltitadan ilmiy ish xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi deganidir. Agar shu sur‘at saqlansa, bir yilda ikki mingga yaqin ilmiy maqola yaratiladi. Bu esa nafaqat universitet, balki butun mintaqaga ilmiy salohiyati o‘sib borayotganining muhim belgidir.

Ayniqsa, “Scopus”ning Q1 va Q2 kvartili jurnallarida qisqa davrda 94 ta maqola chop etilgani alohida e‘tiborga loyiq. Chunki bunday

hamkorlikda tashkil etilgan markaz orqali minglab yoshlarni chet tillar va zamonaviy kasblarga o‘qitish rejasini buning amaliy isboti. Bugun mehnat bozori aynan shunday ko‘nikmalarni talab qilmoqda.

### Ma’naviyatli kitobxon yoshlar

Qarshi davlat texnika universitetida amalga oshirilayotgan ishlarga nazar tashlasangiz, bir muhim jihatga guvoh bo‘lasiz: bu yerda faqat diplom emas, dunyoqarash ham shakllantirilmoqda.

Bugun universitetda o‘ndan ortiq to‘garak faoliyat yuritmoqda. Muhandislik ilmiy-ishlab chiqarish markazi (Fab-lab)dagi robototexnika, sun‘iy intellekt, dizayn, elektr payvandlash, arxitektura singari to‘garaklar yoshlar kasbiy mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan bo‘lsa-da, aslida, ularning vazifasi bundan ancha keng. Chunki har qanday iqtidor, avvalo, qiziqishdan boshlanadi. To‘garaklar esa aynan shu qiziqishni kasbiyotga aylantiradigan ijodiy maydon.

Bugun robot yasagan talaba ertaga yangi texnologiya markazi (Fab-lab)dagi robototexnika, sun‘iy intellekt, dizayn, elektr payvandlash, arxitektura singari to‘garaklar yoshlar kasbiy mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan bo‘lsa-da, aslida, ularning vazifasi bundan ancha keng. Chunki har qanday iqtidor, avvalo, qiziqishdan boshlanadi. To‘garaklar esa aynan shu qiziqishni kasbiyotga aylantiradigan ijodiy maydon.

### Munosabat

Xususan, tuman mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Ko‘chalar tartibga keltirilib, ariq-zovurlar tozalanmoqda. Hududlardagi chiqindilar olinib, daraxtlarga ishlov berilyapti. Gul va manzarali daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, jamoat joylari, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hududini yanada fayzli va shinam holatga keltirish bo‘yicha hasharlar uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

810 professor-o‘qituvchining asosiy qismi ilmiy darajaga ega. Ilmiy salohiyatning 48,6 foizga yetgani qisqa vaqt uchun muhim natija hisoblanadi.

Ilmiy natijaning eng muhim ko‘rsatkichi esa xalqaro ilmiy maydondagi faollikdir. 2026-yilning yarim yilligida universitet olimlari tomonidan 985 ta xalqaro ilmiy maqola chop etildi. Bu deyarli har kuni besh-oltitadan ilmiy ish xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi deganidir. Agar shu sur‘at saqlansa, bir yilda ikki mingga yaqin ilmiy maqola yaratiladi. Bu esa nafaqat universitet, balki butun mintaqaga ilmiy salohiyati o‘sib borayotganining muhim belgidir.

Ayniqsa, “Scopus”ning Q1 va Q2 kvartili jurnallarida qisqa davrda 94 ta maqola chop etilgani alohida e‘tiborga loyiq. Chunki bunday

### OBODLIK VA MEHR-SAXOVAT MAHALLADAN BOSHLANADI

Prezidentimiz raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Beruniy tumanida ham keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

Munosabat Xususan, tuman mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Ko‘chalar tartibga keltirilib, ariq-zovurlar tozalanmoqda. Hududlardagi chiqindilar olinib, daraxtlarga ishlov berilyapti. Gul va manzarali daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, jamoat joylari, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hududini yanada fayzli va shinam holatga keltirish bo‘yicha hasharlar uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

### Munosabat

Xususan, tuman mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Ko‘chalar tartibga keltirilib, ariq-zovurlar tozalanmoqda. Hududlardagi chiqindilar olinib, daraxtlarga ishlov berilyapti. Gul va manzarali daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, jamoat joylari, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hududini yanada fayzli va shinam holatga keltirish bo‘yicha hasharlar uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

810 professor-o‘qituvchining asosiy qismi ilmiy darajaga ega. Ilmiy salohiyatning 48,6 foizga yetgani qisqa vaqt uchun muhim natija hisoblanadi.

### OBODLIK VA MEHR-SAXOVAT MAHALLADAN BOSHLANADI

Prezidentimiz raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Beruniy tumanida ham keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

Munosabat Xususan, tuman mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Ko‘chalar tartibga keltirilib, ariq-zovurlar tozalanmoqda. Hududlardagi chiqindilar olinib, daraxtlarga ishlov berilyapti. Gul va manzarali daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, jamoat joylari, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hududini yanada fayzli va shinam holatga keltirish bo‘yicha hasharlar uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.



Prezidentimiz raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Beruniy tumanida ham keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

Munosabat Xususan, tuman mahallalarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Ko‘chalar tartibga keltirilib, ariq-zovurlar tozalanmoqda. Hududlardagi chiqindilar olinib, daraxtlarga ishlov berilyapti. Gul va manzarali daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, jamoat joylari, ijtimoiy soha obyektlari va mahallalar hududini yanada fayzli va shinam holatga keltirish bo‘yicha hasharlar uyushqoqlik bilan tashkil etilmoqda.

810 professor-o‘qituvchining asosiy qismi ilmiy darajaga ega. Ilmiy salohiyatning 48,6 foizga yetgani qisqa vaqt uchun muhim natija hisoblanadi.

Ilmiy natijaning eng muhim ko‘rsatkichi esa xalqaro ilmiy maydondagi faollikdir. 2026-yilning yarim yilligida universitet olimlari tomonidan 985 ta xalqaro ilmiy maqola chop etildi. Bu deyarli har kuni besh-oltitadan ilmiy ish xalqaro ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi deganidir. Agar shu sur‘at saqlansa, bir yilda ikki mingga yaqin ilmiy maqola yaratiladi. Bu esa nafaqat universitet, balki butun mintaqaga ilmiy salohiyati o‘sib borayotganining muhim belgidir.

Ayniqsa, “Scopus”ning Q1 va Q2 kvartili jurnallarida qisqa davrda 94 ta maqola chop etilgani alohida e‘tiborga loyiq. Chunki bunday

2026-yil 1-avgust,  
155-son

6

MEZON

Markaz ekspozitsiyalarida jamlangan 1,5 mingdan  
ortiq eksponat, 800 dan ziyod qo'lyozma millat xotirasining tirik  
hujjatlaridir.

[www.yuz.uz](http://www.yuz.uz)[yuz.uznews](https://www.facebook.com/yuz.uznews)[yuz\\_official](https://t.me/yuz_official)[yuz.uz\\_news](https://www.instagram.com/yuz.uz_news)[yuz.uz\\_news](https://www.youtube.com/yuz.uz_news)

Shukuh

Aholisi qariyb 40 millionga yaqinlashayotgan yurtimiz  
geografik jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham Markaziy Osiyoning o'zagini tashkil etadi, ta'bir  
joiz bo'lsa, yuragi hisoblanadi. Dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri ushbu mintaqada  
paydo bo'lgan, Buyuk ipak yo'li o'tgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi o'z ildizlari bilan asrlar  
qa'riga borib taqaladi va uch ming yildanki proq davrni o'z ichiga oladi.

JAHON NIGOHIDAGI  
NOYOB MASKAN

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek, Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, sarkardalar, siyosatchilar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlar asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu paytgacha ko'rk-u fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandlik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan minglab qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin.

Bugun insoniy taraqqiyoti ikki qarama-qarshi kuch — ma'rifat va jaholat o'rtasida kechayotgan murakkab kurash maydoniga aylandi. Axborot oqimlari tezlashgan, qadriyatlar chalkashgan, tarixiy xotira zaiflashayotgan bir paytda har bir millat o'z ildizlariga qaytib, o'zligini anglashga majbur. Ana shunday hal qiluvchi davrda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishi ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy merosni chuqurroq o'rganish hamda uni keng jamoatchilikka tanitishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining markaz ochilishidagi nutqi esa nafaqat tantanali so'z, balki yangi O'zbekistonning ma'naviy strategiyasi, tarixiy xotira va kelajak o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi konseptual dasturdur. Markaz "jonlangan tarix"dir. U muzey emas, balki

o'z ildizlariga qaytib, o'zligini anglashga majbur. Ana shunday hal qiluvchi davrda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishi ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy merosni chuqurroq o'rganish hamda uni keng jamoatchilikka tanitishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining markaz ochilishidagi nutqi esa nafaqat tantanali so'z, balki yangi O'zbekistonning ma'naviy strategiyasi, tarixiy xotira va kelajak o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi konseptual dasturdur. Markaz "jonlangan tarix"dir. U muzey emas, balki



“**Islom sivilizatsiyasi markazi yangi O'zbekistonning ma'naviy yuragi, tarixiy xotirasi va intellektual kompasidir. U o'tmishni saqlash bilan cheklanmay, kelajakni shakllantirishga xizmat qilayotgan noyob makondir.**”

millatning ko'p asrlik tajribasi, ma'naviy izlanishlari va intellektual parvozini mujassam etgan tirik organizmdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu majmua “yetti emas, yetmish marta o'ylab, uzoqni ko'zlab, tinimsiz izlanish” natijasida qurildi. Bu ibora shunchaki metafora emas, balki har bir g'ishtiga mas'uliyat, har bir burchiga ma'no yuklangan ulkan loyihaning mohiyatidir. 10 gektar maydonda barpo etilgan, gumbazi 65 metrga bo'y cho'zgan bu inshoot zamonaviy arxitektura bilan milliy ruh uyg'unligining yorqin namunasidir.

Markaz ekspozitsiyalarida jamlangan 1,5 mingdan ortiq eksponat, 800 dan ziyod qo'lyozma millat xotirasining tirik

metrni, balandligi esa 64 metrni tashkil etadi. Zal pushti rangli qimmatbaho marmar bilan qoplangan bo'lib, eng qimmatli gavhari, albatta, muhtaram va muqaddas Qur'oni Karim — Usmon Qur'onidir.

Bu noyob nusxa uchunchi xalifa Usmonning bevosita farmoni asosida yaratilgan. Hozirgi kunda u UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu muqaddas Qur'on atrofida Qur'onning yana 114 ta nodir nusxasi saqlanmoqda — ular orasida somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar, temuriylar, shayboniylar davrida ko'chirilgan nodir nusxalar bor.

Usmon Mus'hafi nafaqat islom olami, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining nodir yodgorliklaridan biri. Gumbaz ostidagi

jumladan, turli tadqiqot markazlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani global ilmfan xabiga aylantirmoqda. Kutubxonadagi 45 mingdan ziyod kitob, 350 ming elektron manba kelajak avlod uchun bilim xazinasidir.

Yurtimizda rivojlangan davlat va erkin jamiyat poydevorini barpo etish uchun “Eng avvalo, ilm va ta'lim” degan oliy maqsad hayotga joriy etilmoqda. Zero, muqaddas islom dini ham insonni doimo ilmu ma'rifatga da'vat etadi. Shu bois, Islom sivilizatsiyasi markazining Ulug'bek darvozasi peshtoqiga Qur'oni karimning “Iqroi” — “O'qi!” degan muborak oyati muhlab qo'yilgani ramziy va teran ma'noga ega.

Islom sivilizatsiyasi markazi yangi O'zbekistonning ma'naviy yuragi, tarixiy xotirasi va intellektual kompasidir. U o'tmishni saqlash bilan cheklanmay, kelajakni shakllantirishga xizmat qilayotgan noyob makondir.

**Anvarjon ALIYEV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi**

Mulohaza

HURMAT, TARTIB VA MAS'ULIYAT

kundalik odatga aylangandagina qadriyat hisoblanadi

Inson uchun har tong yangi umidlar, yangi orzular va yangi rejalar bilan boshlanadi. Shahar uyg'onadi. Ko'chalarda hayot qaynaydi. Kimdir ishga, kimdir o'qishga, yana kimdir muhim uchrashuvga shoshiladi.

Men ham har kuni ertalab minglab insonlar qatori yo'lga chiqaman. Avval avtobusga o'tiraman, keyin metroga chiqaman. Ana shu kunlik safarlar davomida turli odamlarni, turfa fe'l-atvorlarni, xilma-xil munosabatlarni ko'raman, kuzataman. Ba'zan oddiygina bir xushmuomalalik kayfiyatimni ko'taradi. Ayrim hollarda esa ertalab boshlangan bepisandlik yoki odobsizlik kun bo'yi ko'ngilni xira qiladi.

Jamoat transportini ko'pchilik oddiy harakat vositasi deb biladi. Aslida esa u jamiyatning haqiqiy yuzi namoyon bo'ladigan maydon. Avtobus, metro yoki bekatdagi manzaralarga nazar tashlasangiz, odamlarning madaniyat haqidagi balandparvoz nutqlaridan ko'ra ko'proq xulosa chiqarish mumkin. Chunki insonning kimligi yig'inlarda aytgan gaplarida emas, balki boshqalar bilan muomalasida ko'proq bilinadi.

muhimroqdek. Vaholanki, har kuni baland minbarlarda turib yoshlar tarbiyasi haqida gapiramiz. Tarbiya haqidagi gaplar bilan amaldagi munosabat o'rtasidagi farq ana shunday vaziyatlarda yaqqol ko'rinadi.

Metroda ham shunga o'xshash manzara kuzatiladi. Eshik ochilishi bilan ba'zilar tushayotganlarga yo'l berish o'miga ichkariga yopiriladi. Natijada odamlar bir-biriga uriladi, asabiylashadi, vaqt ham yo'qotiladi. Eng qizig'i, bu harakatning mantiqiy asosi yo'q. Avval odamlar tushib olsa, kirish osonroq bo'lishini hamma biladi. Ammo bu paytda sabrsizlik aqlidan ustun keladi.

Yana bir og'riqli masala — jamoat joyida o'zini tutish madaniyati. Avtobus yoki metro salonida shunday odamlar uchraydiki, ularning telefonidagi suhbatini butun vagon eshitib turadi. Go'yoki atrofida hech kim yo'qdek. Boshqalarning osoyishtaligi, tinchligi yoki shaxsiy hududi haqida o'yash ularning xayoliga ham kelmaydi. Bu nafaqat odobsizlik,

balki jamoatga nisbatan hurmatsizlik, aslida. Tozalik masalasida holat ko'pincha ko'ngilni xira qiladigan darajada. Jamoat transportidagi eng oddiy qoidalaridan biri — atrofni iflos qilmaslik ayrim yo'lovchilar uchun go'yoki umuman mavjud emas. Chiqindini qo'lda ushlab turish, uni tegishli joyga tashlash yoki keyinroq tashlab qo'yish o'miga ba'zilar uni bemalol o'rindiq ostiga, yerga yoki yashirish mumkin bo'lgan har qanday burchakka tashlab qolish. Eng achinarlisi, bu xatti-harakatdan keyin yuzaga kelgan iflos muhitda boshqalar o'tirishga, nafas olishga majbur bo'ladi.

Bu yerda muammo faqat bitta qog'oz yoki bitta chiqindida emas. Muammo shu odatni oddiy holat sifatida qabul qilishda. Chunki bir marta tashlangan chiqindi voqeasi keyinchalik e'tiborsizlikni odatga, odatni esa umumiy befarqlikka aylantiradi. Transport ichidagi tozalik buzilsa, bu faqat estetik muammo emas, balki umumiy madaniyat ham

siyqalashayotganini ko'rsatadi. Achinarli jihati shundaki, odobsiz harakatlarni qiluvchilar ko'pincha o'z shaxsiy hayotida bunday beparvolikka yo'l qo'ymaydi. Ular o'z uyida, o'z xonasida tartib va tozalikni saqlaydi, chiqindini joyiga tashlashni yaxshi biladi. Lekin jamoat qayerga kelganda bu mas'uliyat hissi yo'qolib qoladi.

Demak, muammo bilimda ham, imkoniyatda ham emas, munosabatta. Ya'ni “meniki emas, menga aloqasi yo'q” degan qarash ustun bo'lgan joyda umumiy muhit tezda e'tibordan chiqadi va sekin-asta ifloslikka ko'nikish boshlanadi.

Ba'zan jamiyatning yana bir muammosi — befarqlik ko'zga tashlanadi. Bu holat ko'z oldingizda yordamga muhtoj inson turganida ham ko'pchilikning go'yo hech narsa bo'lmayotgandek chetga chiqib ketishi, o'zini ko'rmaganga olishi bilan namoyon bo'ladi.

Qo'lda og'ir yuk ko'targan ayol, yoshi ulug' inson yoki imkoniyati cheklangan fuqaro yordam kutib turgan paytda atrofda qilarning befarqligi ko'nglingizni ranjitadi. Bunday vaziyatlarda oddiy insoniy munosabat o'rini beparvolik egallaydi. Hech kim to'xtamaydi, hech kim aralashmaydi, go'yo bu vaziyatda har bir kishi faqat kuzatuvchi. Vaqt yetishmasligi, shoshilinch ishlar yoki “boshqalar yordam berar” degan o'ylar ortiga yashiringan bu munosabat asta-sekin odatga aylanadi.

Bugun ko'pchilik har qanday qo'pollikni “vaqt yo'q” degan bahona bilan oqlashga harakat qiladi. Go'yo shoshilish insonni odob qoidalaridan ozod qilib qo'yadigandek. Ammo haqiqat shuki, vaqt tanqisligi hech qachon madaniyatsizlik uchun asos bo'la olmaydi. Ishga kechikayotgan odam ham boshqalarni turib o'tmasdan harakat qilishi, avtobus yoki metroda o'zini bosib turishi mumkin. Bandlik hech kimni atrofda qilarni e'tiborsiz qoldirishga majbur qilmaydi.

Muammo vaqtda emas, inson boshqarish va munosabatta. Ko'p hollarda odamlar shoshilishni o'zini oqlash uchun qulay qalqonga aylantirib oladi. Lekin shoshilgan holatda ham inson o'zini tuta bilishi kerak, agar u haqiqatan ham boshqalarni hurmat qilishni xohlasa. Aks

holda, “vaqt yo'q” degan gap faqat odatiy beparvolikni yashirish uchun ishlatiladigan oddiy iboraga aylanadi.

Zamonaviy hayot qancha tezlashmasin, u odob va insoniy munosabatlarni bekor qilmaydi. Aksincha, odamlar bir-biriga yaqin yashashga majbur bo'lgani uchun hurmat va sabrga ehtiyoj yanada ortadi. Texnologiyalar rivojlanishi yoki ish yuki ko'payishi shaxsni oddiy insoniy qoidalaridan ozod etmaydi. Shuning uchun odob “vaqt bor paytda qilinadigan ish” emas, balki har qanday sharoitda saqlanishi kerak bo'lgan mezonidir.

Jamoat transportida kuzatiladigan har bir salbiy holat aslida kattaroq muammoning belgisi hisoblanadi. Navbatni buzadigan odam ertaga boshqa qoidalarini ham buzishi mumkin. Boshqalarni hurmat qilmaydigan insonning jamiyat oldidagi mas'uliyati haqida ham jiddiy savollar tug'iladi. Shuning uchun transportdagi muomala mayda masala emas. U umumiy madaniyat darajasining ko'rsatkichi.

Biz haqiqatan ham madaniyatli jamiyat qurmoqchi bo'lsak, avvalo, avtobus bekatlarida, metro eshiklari oldida va gavjum salonlarda o'zimizni qanday tutayotganimizga qarashimiz kerak. Chunki jamiyatning ma'naviy darajasi bayramlarda, tadbirlarda, to'y va bazmlarda aytilgan chiroyli so'zlar bilan emas, balki kundalik hayotdagi oddiy xatti-harakatlar bilan o'lchanadi. Afsuski, bu imtihondan hamma ham munosib o'tayotgani yo'q.

Shunday ekan, jamoat transportidagi odobni faqat gapda emas, amalda namoyon qilish vaqti keldi. Chunki madaniyat haqida balandparvoz fikrlar bildirish oson, ammo navbatga rioya etish, boshqalarning huquqini hurmat qilish va oddiy qoidalarini bajarishga kelganda ko'pchilikning haqiqiy qiyofasi namoyon bo'ladi.

Biz ko'pincha yuksak ma'naviyat haqida gapiramiz, lekin uning eng oddiy ko'rinishlari aynan avtobus va metro kabi joylarda yetishmaydi. Jamiyatdagi katta muammolar ham ko'p hollarda ana shunday kichik befarqliklardan boshlanadi. Agar har kim faqat o'z manfaatini o'ylashda davom etsa, hech qanday taraqqiyot yoki yuksalish haqida gapirish befoyda. Hurmat, tartib va mas'uliyat esa chaqiriqlar bilan emas, kundalik odatlarga aylangandagina qadriyat hisoblanadi.

**Baxtiyor SAMIYEV, O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi xodimi**

|                                                                   |                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                       |
|-------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM | Bosh muharrir:<br><b>Salim DONIYOROV</b>                     | Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.<br>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.<br>Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.<br>Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.<br><b>Nashr indeksi</b> — 236. Buyurtma — G-846.<br><b>Hajmi</b> — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. <b>Qog'oz bichimi</b> A2. Bahosi kelishilgan narxda. | Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev<br>Musahhih: Nasiba Abdullayeva<br>Dizayner: Xurshid Abdullayev |
| MUASSIS:<br><b>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi</b>    |                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Manzilmiz:<br>100060, Toshkent shahri, Shahrissabz ko'chasi, 85-uy                                    |
| Qabulxona: (71) 233-56-33<br>E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98     | E-mail: info@yuz.uz<br>Be6-cafir: www.yuz.uz: (71) 233-47-05 | Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60                                                                                                                                                                                                                                                            | “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etiladi.<br>Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.                                                                                                                                                                                         |                                                                                                       |